

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-aprel oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 5 031,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	5031,5	115,1
G'uzor tumani	376,9	139,5
Dehqonobod tumani	84,0	110,3
Qamashi tumani	81,4	107,4
Qarshi tumani	330,5	141,4
Koson tumani	269,7	129,3
Kitob tumani	226,5	100,6
Mirishkor tumani	97,5	180,7
Muborak tumani	136,8	91,7
Nishon tumani	97,5	41,8
Kasbi tumani	92,7	134,4
Ko'kdala tumani	42,2	186,1
Chiroqchi tumani	169,2	66,4
Shahrisabz tumani	193,3	194,8
Yakkabog' tumani	159,6	118,6
Qarshi sh.	1289,8	122,1
Shahrisabz sh.	192,6	102,4
Taqsimlanmaydigan hajm	1191,6	308,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar-aprel oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 81,8 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 118,7 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,3 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,9 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 107,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	532,9	255,6	297,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	124,5	109,8	120,7
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2474,8	440,9	234,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,2	108,0	105,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1646,5	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	113,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1196,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 145,0% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,9% ga ko'payib, 23,8% ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,5% i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 104,5% ni tashkil etgan holda 2188,6 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,7% ni yoki 1646,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,4% ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	1196,4	2188,6	1646,5	145,0	104,5	113,4
G'uzor tumani	158,6	158,3	60,0	3,2 m	94,3	112,7
Dehqonobod tumani	2,0	14,3	67,7	111,8	46,7	154,9
Qamashi tumani	14,1	33,1	34,2	4,7 m	65,3	154,8
Qarshi tumani	100,1	157,5	72,9	4,7 m	90,0	195,7
Koson tumani	28,1	154,4	87,2	2,5 m	136,4	103,3
Kitob tumani	57,0	58,7	110,8	4,1 m	50,3	117,0
Mirishkor tumani	62,2	22,2	13,1	11,5 m	76,3	67,4
Muborak tumani	60,9	61,9	13,9	87,2	102,0	75,1
Nishon tumani	34,8	42,8	19,9	25,2	51,7	163,1
Kasbi tumani	20,7	41,2	30,8	5,1 m	108,3	114,5
Ko'kdala tumani	1,3	36,4	4,5	-	4,1 m	32,9
Chiroqchi tumani	47,6	64,7	56,8	103,3	47,1	79,8
Shahrisabz tumani	21,2	129,6	42,5	4,5 m	2,0 m	136,9
Yakkabog' tumani	12,8	88,3	58,4	3,0 m	116,1	107,6
Qarshi sh.	416,2	802,5	71,1	115,9	125,6	123,4
Shahrisabz sh.	48,1	92,9	51,5	3,7 m	91,5	69,9
Taqsimlanmaydigan hajm	110,7	179,6	851,1	137,4	112,7	115,2

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 11,5 marta oshgan) Qarshi tumanida (4,7 marta), Qamashi tumanida (4,7 marta) va Shahrisabz tumanida (4,5 marta) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Ko'kdala tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 4,1 marta), Shahrisabz tumani (2,0 marta) va Qarshi shahrida (125,6 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
G. Ziyatova
75 221-32-47 (7020)

Manzil:
180100, Qarshi shahri.,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
